



O'ZBEK ADABIYOTIDA TARIXIY NASR

Ibragimova Dildora Inomjonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
dildoraibragimova1989@gmail.com

Annotatsiya: Adabiyotshunoslikda tarixiy mavzudagi badiiy asarlar tahlili o'ziga xos yondashuv hamda usullarni talab etadi. Jahon adabiyotshunosligida o'tmish voqealarini yangicha bayonda ifoda etgan tarixiy asarlarni o'rganishda tarixiylik hamda zamonaviy tendensiyalardan foydalanish keng tarqalgan. Maqolada o'zbek tarixiy nasri va uning o'rganilishiga oid tahlil va mulohazalar aks etgan.

Kalit so'zlar: Tarixiy nasr, badiiy-tarixiy nasr, adabiy-tarixiy nasr, tarixshunoslik, zamonaviy adabiyot, payg'ambarlar tarixi

Abstract: The analysis of historical works of art in literary studies requires a unique approach and methods. In world literature, the use of historicism and modern trends is widespread in the study of historical works that express the events of the past in a new way. The article contains analysis and comments on Uzbek historical prose and its study.

Key words: Historical prose, artistic-historical prose, literary-historical prose, historiography, modern literature, history of prophets

Аннотация: Анализ исторических произведений искусства в литературоведении требует своеобразного подхода и методов. В мировой литературе широко распространено использование историзма и современных течений при изучении исторических произведений, по-новому выражающих события прошлого. Статья содержит анализ и комментарии к узбекской исторической прозе и ее изучению.

Ключевые слова: Историческая проза, художественно-историческая проза, литературно-историческая проза, историография, современная литература, история пророков

KIRISH

Adabiyotning tarix bilan kesishuv nuqtasida dunyoga keluvchi badiiy hikoyachilik – tarixiy nasr badiiy adabiyotning tarix bilan munosabatini o'zida aks ettiradi. Tarixiy voqe'likni badiiy tasvirlar vositasida aks ettirilishi tarixiy nasrni yuzaga keltiradi. Mazkur maqolada o'zbek adabiy tarixiy nasri hamda uning ilmiy o'rganilishiga oid mulohazalar yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tarixiy roman janrini tavsiflashda ijodiy tafakkur va hujjatlilikning uyg'unligi; tarixiy hayot va joriy davrning aloqasi, shuningdek, o'tmishning noaniqliklarini bartaraf etish va vaqtning butunligiga erishish (M.Baxtin); tarixiy voqealarni tasvirlashda muallif interpretatsiyasi (I. Shcheblykin); muallifning tasvirlangan



voqealardan yoki mahalliy koloritdan uzoqlashishiga qo'shimcha ravishda, tarixiy ziddiyatning majburiy mavjudligi (G. Lenoble)ni qayd etish lozim.

Dunyo adabiyotshunosligida **tarixiy nasr** tuzilishi va kompozitsiyasidan qat'iy nazar, yaqin yoki uzoq tarixda sodir bo'lgan voqealar haqida hikoya qiluvchi roman, qissa va hikoyalar uchun berilgan umumiy nom bo'lib, unda tarixiy shaxslar asosiy yoki ikkinchi darajali qahramon sifatida ishtirok etishi mumkin [1]. Tarixiy nasr ilmiy mavzuning badiiylashtirilgan shakli, uning maqsadi faqat faktlarni yetkazish emas, balki ularni badiiy tarzda taqdim etishdan iborat. Tarixiy nasr faktlar bilan ishlashda ularni erkin tanlash, shuningdek, hikoyaga qiziqishni saqlab qolish maqsadida to'qima obrazlar, voqealar va qahramonlar kiritish uchun ba'zi erkinliklarga imkon beradi [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Miloddan avvalgi 2-asrda Rimda yilnomalar, Sallust asarlari, J. Sezar qaydlari zamirida ilk tarixiy nasr shakllandi. Rim imperiyasining paydo bo'lishi natijasida tarixiy ma'lumotlarining yirik sharhlari o'laroq Titus Livining "Shahar asoslariga oid Rim tarixi" (lotin tilida, 1-asr), Dio Kassiyning "Tarix" (yunoncha, 3-asr) asarlari yuzaga keldi. Ularning asarlari keyingi ijodkorlar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

Tarixiy nasr musulmon o'lkalarda, xususan, Eron, Iroq va Turkiyada payg'ambar hayoti haqidagi an'analarni hikoya qilish bilan chegaralangan. Movses Xorenatsi (5—6-asr) o'zining "Armaniston tarixi" asarida arman xalqining an'ana va afsonalarini keng qamrab olgan. Uning ijodi, shuningdek, Yegishe (5-asr), Sebeos (7-asr), Jon Mamikonyan (8-asr) asarlari badiiy nasrning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan [3]. Shu nuqtai nazardan, o'zbek adabiyotida XIII asrda yaratilgan Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarini payg'ambarlar tarixidan hikoya qiluvchi tarixiy nasr sifatida tadqiq etish mumkin.

Turkiy tilda ilk tarixiy asar sifatida Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" ("Nabiylar va payg'ambarlar tarixi") hamda "Tarixi mulki ajam" ("Ajam mulkining tarixi") asarlari ta'kidlanadi (akad. B.Valixo'jaev, akad. A.Qayumov, S.G'aniyeva). Alisher Navoiy o'zining tarixiy asarlarini an'anaga ko'ra, dunyoning yaratilishi hamda payg'ambarlar tarixi haqidagi hikoyalar bilan boshlaydi.

Alisher Navoiy tarixiy mavzudagi asarlarida qardosh xalqlardan Jaloliyning "Nizomut tavorix", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Banokatiyning "Jome ut-tavorix", "Tarixi Banokatiy", Muhammad G'azzoliyning "Nasihah ul-muluk", Hamdulloh al-Mustavfiyning "Go'zida", Salmon Forsiy, Ibn Abbos, Vahb binni Muhabbi kabi tarixchilar asarlaridan manba sifatida foydalanganini yozadi[4].

Navoiydan keyin Xoja, Gulxaniy, Munis, Ogahiy kabi ijodkorlar tarixiy nasrchilikni davom ettirgan bo'lsa, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani o'zbek adabiyotida tarixiy roman janriga asos soldi. Yozuvchi Oybek „Qutlug' qon“ tarixiy romanini va ilk tarixiy biografik roman "Navoiy"ni yozdi. O.Yoqubov "Ulug'bek xazinasi", P.Qodirov "Yulduzli tunlar", Muhammad Ali "Sarbadorlar" romanlari bilan tarixiy roman janri yanada rivojlandi. Bugungi kunda janr taraqqiyotiga xizmat qilayotgan Muhammad Ali,



Luqmon Bo'rixon, Isajon Sulton singari zamonaviy ijodkorlarning tarixiy nasriy asarlarini qayd etish mumkin.

O'zbek adabiyotshunosligida tarixiy nasr poetikasiga oid tadqiqotlar kam uchraydi. Xususan, nasr (proza) atamasi adabiy-badiiy mazmuni ifodalashiga qaramay, taqiqot manbai, uning o'rganilish aspekti va mazmun mohiyatini to'la izohlay olmasligi sabab uning o'rniga "badiiy-tarixiy nasr" istilohi qo'llanila boshladi[5].

Adabiyotshunosligimizda adabiy-tarixiy nasr, badiiy-tarixiy nasr, tarixiy-badiiy nasr atamaları bilan nomlanayotgan **tarixiy nasr** janr sifatida to'liq tadqiq etilmagani bois uni "tarixiy asar" istilohi bilan yuritish ustunlik qilmoqda. Bizningcha, janrni nomlashda badiiy, adabiy xususiyatlarni ochib berish uchun "nasr" atamasidan foydalanishning o'zi yetarli. Nasr (proza) badiiy olamni tashkil etuvchi voqealar, harakatlar va boshqalarning, ya'ni asar syujetining badiiy mujassamlanishiga yordam beradi [6].

Ma'lumki, tarixiy nasr o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari hisoblanmish tarixiy ocherk va memuar janrdan farq qiladi. Tarixiy nasrda o'tmish voqeligi badiiy ifodalanib, voqealar tarixiy ahamiyat kasb etmaydi, maishiy hayot tarzi keng tasvirlanadi. Unda tarixiy hujjatlar, rasmiy matnlar aynan keltirilmaydi, ijodkor real hayot manzarasini yoritishi, unga munosabat bildirishi matnni nazm bilan sayqallashi mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

O'tmish voqealaridan hikoya qiluvchi tarixiy nasr bugungi kunning dolzarb muammolariga ko'zgu tutishi nuqtai nazaridan hamisha dolzarb hisoblanadi. Janrning rivojlanishi milliy adabiyotlarning o'zligini saqlab qolishi, milliy qahramonlari, urf odatlari va an'alariga qayta hayot bag'ishlashi mumkin. O'zbek adabiyotida so'nggi yillarda yozilayotgan tarixiy mavzudagi asarlar zamirida ham o'zlikni anglashga bo'lgan ulkan ehtoyoj yotadi.

O'zbek adabiyoti tarixida salmoqli o'rin egallagan hamda hozirda rivojlanib borayotgan tarixiy nasr va uning tadqiqiga doir alohida izlanishlar olib borish zarurati mavjud. Bunda tarixiy asarlarning badiiyati hamda g'oyaviy jihatlarini bugungi kun talabi doirasida tahlil qilish, ularni jahon adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan qayta baholash janr taraqqiyotiga xozmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/1508893>
2. Литература и язык. Современная иллюстрированная энциклопедия. — М.: Росмэн. Под редакцией проф. Горкина А.П. 2006.
3. <https://litpr.ru/istoricheskaya-proza/>
4. Пардаева И. М. Алишер Навоий тарихий асарлари бадийяти. Филология фан. Фалсафа доктори дис. 2018, 17-б.



5. Шодмонов Н.Н. "Шоҳиду-л-иқбол" нинг ўзбек бадий-тарихий насри тараққиётидаги ўрни, манбалари ва матний тадқиқи. Филология фан. доктори дис. 2009, 39-б.
6. Inomjonovna, I. D. (2023, April). Boshlang'ich sinflarda individual ishlash texnologiyasi va uning samaradorligi. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 4, pp. 207-212).
7. Ибрагимова, Д. И. (2022). Замонавий мактабларда адабиёт фанини ўқитиш муаммолари. Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий қадриятлар, 1(2), 333-335.
8. Ибрагимова, Д. И. (2021). АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ ТАРИХИ АНБИЁ ВА ҲУКАМО АСАРИДА ПАЙҒАМБАРЛАР ГЕНЕЗИСИ ТАҲЛИЛИ. Conference, 1(2), 63-65.
9. Ibragimova, D. (2021). "ҚИСАСИ РАБҒУЗИЙ" АСАРИДА ПРОФЕТОЛОГИК ИЛДИЗЛАРНИ ЎРГАНИШ. *Scienceweb academic papers collection*.
10. Ўтаев, А., & Сайлиева, М. (2021). Навоий дostonларида комил инсон талқини. *Scientific progress*, 1(4), 21-24.